
QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



“Sud qarorlarini qayta ko’rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi Qonun (O’RQ-662-son, 12.01.2021 y.).

Kiritilgan o’zgartishlar bilan Ma’muriy sud ishlarini yuritishda **nazorat instantsiyasi tugatildi**.

Biznes ombudsmanga birinchi instantsiya sudining tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan **apellyatsiya shikoyati** taqdim qilish huquqi berildi.

Apellyatsiya shikoyati qaror qabul qilingandan **bir oy muddatda** berilishi mumkinligi belgilandi (**ilgari** bu muddat **20 kun** edi).

Apellyatsiya shikoyatini ish yuritishga qabul qilish masalasini hal etishga oid ajrim haqida ishtirok etuvchi shaxslar **3 kunda** xabardor qilinadi (**ilgari** xabardor qilish **ajrim chiqarilgan kunda** amalga oshirilgan).

Kassatsiya shikoyati apellyatsiya instantsiyasi sudining qarori qabul qilinganidan **1 yilda** berilishi mumkin (**ilgari** hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin **bir oy ichida** berilishi mumkin edi).

Manfaatdor shaxslar ishlarni kassatsiya tartibida takroran ko’rish to’g’risida protest keltirish haqidagi ariza bilan **Oliy sud raisi, Bosh prokuror va ularning o’rinbosarlariga murojaat qilishga haqli**.

Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran ya’ni 2021 yil 13 yanvar kundan kuchga kirdi.

Avazjon Ergashev,

jinoyat ishlari bo’yicha Qo’shtepa tuman sudining raisi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-02-09 09:36:08